

Date: 27th June-2025

O'ZBEKISTONDA 2017-2024 YILLARDA ADVOKATURA INSTITUTI
FAOLIYATINING TARIXIY TAHLILI

Normatova M.F

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi

Murtazayev D.B

Namangan davlat universiteti talabasi, tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekistonda zamonaviy advokatura tizimining shakllanishi va so'nggi yillardagi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida, qonun ijodkorligi faoliyatini sifatli tashkil etishda, izchil va yagona davlat siyosatini shakllantirishda advokaturaning roli o'rganiladi. Advokatura organlari tomonidan huquqni qo'llash amaliyoti, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek, 2017-2024 yillarida advokatura tizimida sodir bo'lgan o'zgarish va yangiliklar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: advokatura, e-advokat.uz yuridik yordam ko'rsatish axborot tizimi, advice.uz va madad.uz, «Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish konsepsiyalari», «Mediatsiya», Advokatlar palatasi, advokatlik byurosi vca firmasi.

2017-yildan boshlab advokatlik sohasida boshqa huquq sohalarda bo'lgani kabi o'ziga xos yangi davr boshlandi. Yangi O'zbekistonda ushbu tizim rivojlanishining mutlaqo yangi bosqichi boshlandi desak xato bo'lmaydi.

Ushbu yangi davrning birinchi qadami sifatida Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 12-maydagi PF-5441 sonli farmoni² qabul qilinganini ko'rsatish mumkin. Ushbu farmonida so'nggi yillarda mamlakatimizda kuchli advokatura tizimini barpo etish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar, ularning ijobiy natijalari e'tirof etilishi bilan birga advokatura institutining bugungi kun talabi darajasida rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham ko'rsatib o'tildi va sohani isloh qilish yo'nalishlari belgilab berildi.

Yuridik kadrlarni xususan advokatlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, bugungi kun talabiga mos keladigan yuqori malakali mutaxassis-huquqshunoslarni jamiyatga yetkazish Adliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi.

Ma'lumki, jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanadigan advokatlar o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi, har 3 yilda kamida bir marotaba kasbiy malakasini oshirishi lozim.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 12-maydagi «Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5441 sonli farmoni.



Date: 27th June-2025

Shunga ko'ra, advokatlarning malakasini oshirish kurslari ikki hafta davomida Yuristlar malakasini oshirish markazida olib boriladi hamda yakuniy sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan advokatlarga belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-sentabrdagi 544-sonli qaroriga³ muvofiq Markazda yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan barcha sohadagi mutaxassislar, shu jumladan advokatlarni ham o'qitilishi belgilandi. Hozirda markazda adliya organlari, Davlat xizmatlari agentligi, FHDYo organlari, advokatlar, notariuslar, Yuristkonsultlar, patent vakillari hamda xo'jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlarning boshqa soha mutaxassislari malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida o'qitilmoqda, shuningdek mediatorlar tayyorlanmoqda.

Qolaversa, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani tugatish sud tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. birinchi marotaba Respublikada professional mediatorlar tayyorlash kursi tashkil etildi va mediatorlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xususan, 2020-yil 1-yanvardan advokatura institutini yangi bosqichga olib chiqqan «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonun kuchga kirdi. Mediatorlik instituti nizo taraflari tomonidan mediatorni jalb etish yo'li bilan fuqarolik huquqiy munosabatlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabatlari, oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, yakka mehnat nizolarini hal etishda fuqarolik sudigacha bo'lgan jarayonlarni faol hal etishga kirishdi.

Tijorat tashkilotlari tomonidan yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatish tartibi joriy etilib, advokatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashuvchi komissiya o'z faoliyatini boshladi. 81 nafar mediatorlarga professional mediatorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi sertifikatlar berildi, ulardan 55 nafari professional mediator sifatida o'z faoliyatini boshladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, odatda malaka oshirishning qaysi shakli advokatlik hamjamiyati va advokatga ko'proq to'g'ri kelishi, uning barcha ehtiyoj va imkoniyatlariga javob berishi (vaqt, joy, moddiy resurslar va boshqalar) advokatlarga tanlash huquqi asosida beriladi⁴.

Albatta, ilg'or xorijiy tajriba asosida advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish, akademik o'quv kurslari bilan chegaralanib qolmasdan, advokatning 3 yillik davrdagi intellektual faolligi hisobiga reyting ball yig'ib borish tizimini joriy etish advokatlarning o'z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishiga, o'z navbatida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifati oshishiga xizmat qiladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-sentabrdagi «Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 544-sonli qarori.

⁴ <https://yuz.uz/uz/news/yuritimizda-yuristlar-malakasiqandayoshiradi?view=mahsulot-xitoynikini-bolsa-unda-kafolat-muddati-bolmaydimi>



Date: 27th June-2025

So‘zsiz, 2017-2021-yillarda Advokatlar palatasi faoliyatida ko‘plab yirik islohotlar amalga oshirildi. Xususan, adliya organi xodimlarining advokatura bo‘yicha malaka komissiyasidagi a‘zolarining soni 50 % dan 1 nafarga tushirildi.

Advokatlar sud binosiga kompyuter, mobil va boshqa aloqa vositalarini moneliksiz olib kirish huquqiga ega bo‘ldi. advokatlar o‘zlarining himoyasi ostidagi shaxslar bilan audio va video kuzatuv qurilmalari bo‘lmagan maxsus xonalarda hamda begona shaxslarning ishtirokisiz o‘z vaqtida va hech qanday to‘siqlarsiz uchrashishi mumkinligi qonuniylashtirildi.

Advokatlik maqomini olish uchun malaka imtihoni jarayonlarining shaffofligini ta‘minlash maqsadida imtihon jarayonini internet tarmog‘ida real vaqt rejimida tranlyatsiya qilish yo‘lga qo‘yildi.

Qolaversa, jazoni ijro etish muassasalarida advokat va uning himoyasi ostidagi shaxs uchrashadigan xonalarda audio va videokuzatuv qurilmalari uchrashuv vaqtida o‘chirib qo‘yilishi qonuniylashtirildi.

So‘nggi 5 yillikda advokatura faoliyatiga AKT larini joriy qilish orqali advokatura sohasi tubdan yangilanib, jozibali kasbga aylandi. Bu esa jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatishni yangi bosqichga olib chiqdi.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-sonli qarori⁵ bilan advokatura sohasini raqamlashtirishga doir vazifalar belgilab ijroga qaratilganligi, “Yuridik yordam» axborot tizimi ishlab chiqilib, unda advokatlarning shaxsiy kabineti, advokatlarning elektron reyestri, «elektron advokatlik orderi»ni olish va boshqa keng imkoniyatlar yaratildi.

Mazkur hujjatga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvardan davlat hisobidan advokatlarni ishga jalb etish elektron tartibda tasodifiy tanlash yo‘li bilan aniqlanish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Keyingi eng katta qadam sifatida 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi» ning qabul qilinishini aytish joizdir. Mazkur «Taraqqiyot strategiyasi»ning ikkinchi yo‘nalishi mamlakatimizda adolat va Qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga asoslangan va bu orqali nafaqat sud-huquq sohasini isloh qilish balki advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish masalalari belgilandi.

Unda quyidagi normalar kelgusida advokatura institutini to‘laqonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish, advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va samarali mexanizmlari va institutsional asoslarini shakllantirish belgilandi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 30-maydagi «Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-263-sonli qarori.



Date: 27th June-2025



Qolaversa, strategiyada Advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yish, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo'lga qo'yish, bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va «yagona darcha» tamoyili asosida foydalanishni ta'minlash ham mustahkamlab qo'yildi.

Mamlakatimizda advokatura tizimini rivojlantirish bo'yicha islohotlar faqat yuqorida sanab o'tilgan farmon qabul qilish yoki «Taraqqiyot strategiyasi»ni joriy qilish bilangina emas balki ularni amalda to'g'ri qo'llash orqali ham amalga oshirilmoqda.

Shu narsa e'tiborga sazovorki, advokat barcha jinoyat ishlarida ishtirok etish huquqiga ega. Amalga oshiriladigan sud-huquq islohotlarning muhim yutuqlaridan biri advokatning isbotlash jarayonida ishtirok etish va dalillar sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni to'plash borasidagi huquqlari jiddiy kengaytirilgani bo'ldi. Shunday qilib, ishda vakil sifatida qatnashayotgan advokat fuqarolik protsessining to'laqonli va mustaqil isbotlash subyektiga aylandi⁶.

Ammo baribir 2019-yil boshida O'zbekiston aholisi soniga nisbatan advokatlar sonining juda past darajada edi. Agar raqam haqida gapiradigan bo'lsak, bugungi kunda 3919 advokat ro'yxatga olingan. Bundan tashqari, 2010-2020 yillar mobaynida ularning soni kutilganidek, sezilarli darajada oshmadi. O'zbekistonda o'rtacha 8660 kishiga bir advokat to'g'ri keladi. Hududlarda bu ko'rsatkich 12-20 mingni tashkil qiladi. Surxondaryo viloyatida esa bitta advokat 32000 kishiga xizmat qiladi. Taqqoslash uchun, Isroil advokatlar ta'minlash eng yuqori darajasi hisoblanadi 136 fuqaroga, Turkiyada 665, Qozog'istonda 3932 nafar fuqaroga bir advokat to'g'ri keladi. Biz tahlil qilgan 42 mamlakatdan O'zbekiston atigi 40-o'rinni egallagan⁷.

O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda «Konstitutsiya va Qonun ustuvorligini ta'minlashga, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, shuningdek, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4551-sonli qarori bilan Palata advokatlar kengashiga Adliya vazirligi, Oliy sud va Bosh prokuratura bilan birgalikda 2020-yil 1-maydan boshlab advokatlar institutini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish topshirildi.

Davlat tomonidan kafolatlangan yuridik yordam tizimini takomillashtirish, shu jumladan kam ta'minlangan va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan toifadagi fuqarolar uchun jinoiy, ma'muriy, fuqarolik ishlari bo'yicha davlat tomonidan bepul yuridik yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish ham yo'lga qo'yildi.

Mazkur konsepsiya avvalo, advokatura faoliyatining institutsional asoslarini va advokatlarning protsessual huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalasini ko'tardi. Konsepsiya advokatlik kasbining kelajagi uchun asosiy shart va talablarini

⁶ Rustamhayev M.H. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati : darslik / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. TDYI.-Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012-384 bet

⁷ https://norma.uz/nashi_obzori/advokatura_kakovy_problemy_i_kak_ih_reshat

Date: 27th June-2025

belgilab berdi. Xalqaro standartlarni joriy etish oson bo'lmaydi va bir necha yillarni talab etadi.

Bundan tashqari, advokatura instituti faoliyatida fuqarolarga onlayn xizmat ko'rsatish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, «Bepul yuridik yordam to'g'risida»gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan edi. Uning qabul qilinishi jamoatchilikning yuridik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirdi. Adliya vazirligi bu borada juda ko'lamli ishlarni amalga oshirdi va fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida milliy huquqiy internet portali «advice.uz» yaratildi.

Shu bilan birga, 2019-yil sentyabr oyidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlatning barcha mintaqalarida aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatadigan keng qamrovli yuridik maslahat byurolari tarmog'iga ega bo'lgan «Madad» NNT tashkil etilib, yuridik maslahat va amaliy huquqiy yordam ko'rsatish ishlari boshlandi⁸.

Advokatlar va advokatlik tuzilmalari soni mazkur qonunosti hujjatlaridan so'ng tizimli ravishda, oshib bordi. Xususan, 2016-2020 yillarda advokatlik bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziyalar soni 2608 tani, ro'yxatdan o'tgan advokatlik tuzilmalari soni 924 tani, Advokatlik byurolari 822 tani va advokatlik firmalari 100 tani tashkil etdi.

Albatta so'nggi yillarda advokatlik instituti faoliyatini yanada isloh etish yo'lidagi Prezident va hukumat qarorlarining natijasi sezildi. Xususan, 2023-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda advokatlik litsenziyasini olib faoliyat yuritayotgan advokatlar soni 5377 tani, advokatlik byurolari 2685 tani, advokatlik firmalari 576 tani hamda advokatlar hay'atlari soni 91 tani tashkil etgan. Advokatlarning o'rtacha yoshi 50 yoshni tashkil etgan⁹.

Quvonarlisi, 2024-yil o'rtasida Advokatlar palatasi advokatlari soni 6054 tani, advokatlik byurolari 3306 tani, advokatlik firmalari 593 tani hamda advokatlik hay'atlari 91 tani tashkil etdi¹⁰. Advokatlik faoliyati bilan bog'liq yana bir o'zgarishlardan biri, uning faoliyatiga to'sqinlik qilish mumkin emasligi belgilandi. Xususan, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari advokatlik faoliyatiga har qanday shakllarda, shu jumladan, ishonch bildiruvchi shaxs bilan uchrashish huquqini cheklash orqali to'sqinlik qilishi mumkin emasligi belgilandi.

Advokat so'roviga o'z vaqtida javob bermagan mansabdor shaxslar advokatning sudga to'g'ridan-to'g'ri murojaatiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

Hukumatning 2022-yil 5-avgustdagi 432-sonli qarori¹¹ asosida «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi Nizom qabul qilindi. Nizomga asosan, nomzodga litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, talabgorga xabarnoma yuborilmoqda. Talabgor xabarnoma yuborilgan kundan

⁸ https://norma.uz/nashi_obzori/advokatura_kakovy_problemy_i_kak_ih_reshat

⁹ <https://e-advokat.uz/>

¹⁰ <https://e-advokat.uz/>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 432-sonli qarori.



Date: 27th June-2025



boshlab 3 oydan ortiq bo‘lmagan muddatga davlat boji (BHMning 1 baravari miqdorida) to‘laydi. anlangan har bir ixtisoslik bo‘yicha malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan talabgor litsenziya olish uchun 3 oy ichida tegishli litsenziyalovchi organga murojaat qilishi kerak.

Litsenziya talabgorning doimiy yashash joyi bo‘yicha cheklanmagan muddatga beriladi va O‘zbekistonning butun hududida amal qiladi. Talabgor litsenziya olish uchun arizani «Litsenziya» AT yoki YAIDXP (my.gov.uz) orqali elektron yuboradi. Arizalar har kuni, dam olish va bayram kunlaridan qat’i nazar, 24 soat davomida yuborilishi mumkin¹².

Tadbirkorlik subyektlari uchun yuridik maslahat xizmatlarini amalga oshiruvchi 65 dan ortiq yuridik konsalting tashkilotlari ochilib, bepul ixtiyoriy yuridik yordam ko‘rsatish (pro bono) amaliyoti joriy etildi.¹³

Tizimdagi yana bir yirik o‘zgarishlardan biri, sud binolarida advokatlar uchun alohida xonalar tashkil etilib, advokatlarning sud binosida kompyuter, mobil va boshqa aloqa vositalaridan hech bir moneliqsiz foydalanishi yo‘lga qo‘yildi.

Qolaversa, tergov hibsxonalari va yopiq turdagi muassasalarda advokatlar va himoya ostidagi shaxslar uchrashuvi uchun audio va videokuzatuv qurilmalari bo‘lmagan xonalar qayta jihozlanib, ularda vizual ko‘rib turish imkoniyati yaratilib, advokatlik litsenziyasi amal qilishini tugatish bo‘yicha Adliya vazirligi vakolati bekor qilindi. «Advokatura institutini rivojlantirish kontsepsiyasi» loyihasi ishlab chiqilib, Toshkent mediatsiya markazi tashkil etildi.

2022-yil 04-noyabr kuni Advokatlar palatasi va Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya, Xitoy advokatlik hamjamiyatlari hamda advokatlar xalqaro ittifoqi bilan memorandumlar imzolaniib, «Advokatura institutini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi» mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi¹⁴.

Konferensiyada bepul yuridik yordam ko‘rsatish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarga yechim izlash, advokatlarning malakasini oshirish va tadbirkorlik subyektlariga hamda investitsiya faoliyatida malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini tahlil qilish hamda amaliyotning dolzarb masalalari yuzasidan o‘zaro fikr va tajriba almashildi.

2023-yil 09-avgustda «Advokatura to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-1-moddasiga o‘zgartirish kiritish haqida»gi 862-sonli Qonun Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolaniib, sohada katta o‘zgarishlarni boshlab berdi.

Qonunga kiritilgan yangi o‘zgartirishga ko‘ra advokat maqomiga eta bo‘lishga talabgor shaxs litsenziya olish uchun barcha advokatlik tuzilmalarida kamida 3 oy muddat stajirovka o‘tashi kerak hamda malaka imtihonini topshirishi shartligi belgilandi. Shu vaqtga qadar esa, talabgor shaxs yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida 2 yillik ish stajiga ega bo‘lish lozim edi.

¹² <https://yuz.uz/uz/news/advokatlik-faoliyatini-litsenziyalash-soddalashtirildi>

¹³ <https://gov.uz/adliya/sections/huquqiy-xizmat-ko-rsatishni-davlat-tomonidan-tartibga-solish/view/2807/>

¹⁴ <https://adliya.uz/inner-page/huquqiy-xizmat-korsatishni-davlat-tomonidan-tartib>

Date: 27th June-2025

Son'ggi yillarda advokatlar tomonidan harakatlarni joylarga chiqib, huquqiy maslahatlarni sayyor tartibda amalga oshirishi ham tizimda an'anaga aylanib, davlat xizmatchilarini xalqqa yaqinlashtirishda muhim omillardan biri bo'ldi.

Bundan tashqari, fuqarolardan kelib tushgan ko'plab takliflar asosida yangilangan Konstitutsiyada «Advokatura» nomi bilan ataluvchi yangi XXIV bob qo'shildi. Mazkur yangi bobda inson huquqlarini himoya qiluvchi advokatura tizimini kuchaytirishga xizmat qiluvchi bir qator modda va normalar o'rin oldi.

Xususan, Konstitutsiyaning 141-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi, advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini-o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanishi, advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi Qonun bilan belgilanishi ko'rsatib o'tildi.

142-moddada advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliqsiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanishi hamda advokat, uning sha'ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va Qonun bilan muhofaza qilinishi qonuniy mustahkamlandi.

Bugungi kunda jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilishning normativ va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Natijada, O'zbekiston xalqaro huquqning subyekti sifatida inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik borasida ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilgani e'tirof etilmoqda. Mamlakat xalqaro norma ijodkorligi faoliyatining faol ishtirokchisi sifatida yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida jahon maydoniga dadil chiqayotgani buni tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining «Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-sonli buyrug'i¹⁵ qabul qilindi.

Advokatlar palatasining xohish istaklarini hisobga olib, qabul qilingan mazkur buyruqqa asosan 33 ta bandedan iborat «Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom advokat stajyori faoliyatiga katta yengilliklar va mustaqillik berganligi bilan quvonarli.

Avvallari advokatlik tuzilmalarida stajirovka o'tash uchun 6 tadan ortiq (ba'zida bundan ham ko'p) hujjatlar taqdim etilishi, shuningdek, stajirovka o'tash davomida reja tasdiqlatish, referat tayyorlash va uni himoya qilish, ish bo'yicha nutq yozish, yozma hisobotlar tayyorlash talab etilar edi. Bu esa, ortiqcha vaqt sarflanishiga va ovoragarchilikka sabab bo'lardi. Bundan tashqari, stajorning o'rindoshlik asosida ishlashi ham mumkin emas edi.

¹⁵ <https://lex.uz/docs/-6951674>



Date: 27th June-2025

Zamonaviy advokaturani joriy etish va advokatlik tuzilmasi xodimlari faoliyatini tashkil etishni yengillashtirish maqsadida Adliya vaziri buyrug'i bilan Advokat stajyori va advokat yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom yangidan tasdiqlandi.

Endilikda, stajyor tomonidan stajirovka o'tash uchun taqdim qilinadigan hujjatlar qariyb 2 baravarga kamaytirilib, qat'iy 4 ta hujjat talab qilinishi belgilandi.

Stajirovka davrida esa, reja tasdiqlatish, referat tayyorlash, uni himoya qilish, ish bo'yicha nutq yozish, yozma hisobotlar tayyorlash kabi byurokratik to'siqlar bekor qilinib, stajirovka amaliy ko'nikmalarga yo'naltirildi.

Shu bilan birga, quyidagi yangi imkoniyatlar joriy etilmoqda. Xususan, stajyor va yordamchiga sud yoki tergov organlarini ruxsati asosida advokat bilan birgalikda sudda yoki tergov organlarida ishtirok etish huquqi berilishi, stajyorlarga o'rindoshlik asosida stajirovka o'tashga ruxsat berilishi, stajyorga rahbar bo'lgan advokat litsenziyasining amal qilishi to'xtatib turilgan yoki tugatilganda stajyor stajirovkani boshqa advokatlik tuzilmasida davom ettirishi mumkinligi hamda advokat stajyori va advokat yordamchisining faoliyati yuzasidan ikkita idoraviy normativ-huquqiy hujjat unifikatsiya qilinishi belgilandi.

Har bir davlatni rivojlantirish, uni isloh qilish hamda rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish uchun harakat qilinayotganda albatta kamchiliklar bo'lishi tabiiy hol. Ayrim sohalar kabi advokatura tizimida ham kamchiliklarni uchratish mumkin. Umuman olganda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar sudlarning mustaqilligiga erishish va sudlarda fuqarolar manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan. Amaldagi protsessual tizimda advokaturaning roli har doim ham yetarlicha baholanmaydi, natijada qarama-qarshilik tamoyili asosida qaror qabul qilish qiyinlashadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, so'nggi 5 yillikda jamiyatda advokatura instituti hamda advokatlarning rolini yanada oshirish maqsadida qonunchilikka muhim bir qator yangi normalar kiritildi. Shu bilan birga, amalda advokaturaning mustaqilligini ta'minlash, professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirish borasida bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Shu muammolarni bartaraf qilish maqsadida advokatga nisbatan qamoqqa olish, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash va boshqa sanksiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahri sudi tomonidan qo'llanilishi, shuningdek, advokat so'roviga asosan haq evaziga ekspertiza tayinlanishi hamda advokatlarning ish faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga ta'sir qilmagan holda boshqa haq to'lanadigan faoliyatlar bilan shug'ullanish imkoniyatini joriy qilish lozim. Bu ishlar fuqarolarga malakali huquqiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshiradi. Xususan:

Birinchidan, aholi ko'rsatilayotgan ayrim advokatlik xizmatlarning sifati va advokatning malakasidan doim ham qoniqmaydi. Ketgan vaqti, moddiy resursi hamda asab buzarligidan kuyinib yuruvchilar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun, mijoz murojaat qilayotgan advokatning malakasi va bilimini oldindan bilishni istaydi. e-



Date: 27th June-2025

advokat.uz yuridik yordam ko'rsatish axborot tizimida advokatlarning reytingini oshkora yuritilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, qonunchilikda taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun Qonun hujjatlarida har 3 yilda advokatlarning malakasini oshirish ko'zda tutilgan. Biroq Adliya vazirligi huzuridagi o'quv markazi poytaxtda joylashgan bo'lib, hududlarda filiallari yo'q. Treningni yakunlash uchun advokatlar 2 haftadan 1 oy davomida mijozlardan ajralishlari kerak. Bu mijozlarga ortiqcha asabbuzarlik va vaqt sarfini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun advokatlar malakasini oshirish muddatini va turini advokatning tizimdagi mehnat stajiga qarab belgilash maqsadga muvofiq.

Qolaversa, litsenziya olish uchun malaka imtihonini topshira olmagan talabgor uni takroran kamida olti oydan keyin topshirishi mumkinligi, advokatlikka qadam qo'yayotgan hamda oila boquvchi nomzodlarni boshqa sohaga ishga o'tib ketishlariga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, bizning fikrimizcha, yuridik fakultetning iqtidorli bitiruvchilariga boshqa huquq-tartibot organlari keyingi 1 yil ichida ish taklif qilib, advokatura instituti kadrlar salohiyatiga ta'sir o'tkazmoqda. Shuning uchun advokat bo'lishni istagan bitiruvchi yosh huquqshunoslar ushbu mutaxassislik bo'yicha 6 oy davomida universitetning o'zida yakuniy kurslarda o'qitilishi mumkin. Litsenziya olish uchun ikki yillik ish tajribasi talabi bekor qilinishi yaxshi, ammo universitet bitiruvchisiga yengilroq ma'muriy va fuqarolik ishlari kirishish imkoniyтини berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

To'rtinchidan, «Advokatura to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga ko'ra, yuridik xizmat uchun haq to'lash advokat bilan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o'rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi. Ammo aksar advokatlik firmalarida yuridik yordam uchun narxlar ro'yxati tuzilmagan, ro'yxat bo'lsada mijozga taqdim etilmaydi. Shuning uchun odatda sud hukmi o'qilganga qadar advokatlik xizmati narhi karrasiga oshib ketaveradi. Shuning uchun mijozga qulaylik yaratish uchun xizmatlarning ma'lum bir summasini ma'lumot tariqasida avvaldan taqdim etish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, hozirda xorijda ishlayotgan hamda ta'lim olayotgan millionlab yurtdoshlarimizni huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida O'zbekistonning diplomatik elchixonalarida advokatlik lavozimini joriy etish hamda bittadan malakali advokat bilan ta'minlash maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, bugungi kunda advokatlar tomonidan e-advokat.uz yuridik yordam ko'rsatish axborot tizimi, advice.uz va madad.uz saytlari orqali aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Ammo aksariyat insonlar ushbu bepul huquqiy maslahat saytlaridan xabardor emas. Shuning uchun shahar va tuman markazlaridagi yirik reklama banerlarida, ijtimoiy tarmoqlarda vaqti bilan ushbu saytlar yuzasidan sifatli targ'ibot materiallarini ko'rsatish maqsadga muvofiq.

